

SPLAYN FUNKSIYANING YAQINLASHISHI

*G.Y.Soliyeva¹, N.S.Zokirova¹, D.A.Mahmudova²,
J.X.Suvonov³, D.A.Abdusattorov³, R.Anvarjonova³*

*¹Namangan Davlat Universiteti
Raqamli ta'lim texnologiyalari*

Kafedra o'qituvchisi,

²Namangan shahar 45-maktab o'qituvchisi,

³Namangan Davlat Universiteti

Raqamli ta'lim texnologiyalari

kafedra talabasi

E-mail:soliyevagavharoy8@gmail.com

Annotatsiya: Agar har bir $[x_i, x_{i+1}]$ qisman kesmadagi splaynning noma'lum parametrlari boshqa qisman kesmalardagi splaynlarning noma'lum parametrlari bilan birgalikda aniqlansa, bunday splaynlar global splaynlar deyiladi. Global splaynlarda qisman kesmalardagi splaynlarning noma'lum parametrlari chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini haydash usuli bilan yechish vositasida topiladi.

Kalit so'zlar: Splayn funksiyalar, global splaynlar, lokal interpolyatsiyalar, lokal splaynlar, interpolyatsiyon ko'phadlar, klassik interpolyatsiyalar.

Аннотация: Если неизвестные параметры сплайнов в каждом частичном участке $[x_i, x_{i+1}]$ определяются вместе с неизвестными параметрами сплайнов в других частичных сечениях, то такие сплайны называются глобальными сплайнами. В глобальных сплайнах неизвестные параметры сплайнов в. Частичные сечения приводят к решению системы линейных алгебраических уравнений.

Ключевые слова: сплайн-функции, глобальные сплайны, локальная интерполяция, локальные сплайны, интерполяционные полиномы, классическая интерполяция.

Abstract: If the unknown parameters of splines in each $[x_i, x_{i+1}]$ partial section are determined together with the unknown parameters of splines in other partial sections, such splines are called global splines. In global splines, the unknown parameters of splines in partial sections drive a system of linear algebraic equations method is found in the solution.

Key words: Spline functions, global splines, local interpolation, local splines, interpolating polynomials, classical interpolation.

1. Splaynlarning ta'rifi¹⁵

¹⁵ Isroilov. M.I. Hisoblash metodlari. Toshkent, O'qituvchi, 1- qism, 2003, 2-qism, 2008.

$[a, b]$ kesma $a = x_0 < x_1 < \dots < x_n = b$ nuqtalar

bilan bo'laklarga bo'lingan bo'lsin. $p \geq 1$ natural son bo'lsin.

Ta'rif 1. $[a, b]$ da aniqlangan darajali k - defektli splayn deb ushbu shartlarni qanoatlantiruvchi funktsiyaga aytiladi:

1) $s(x) = s(f, x) = \sum_{j=0}^p a_j^{(i)} x^j, x_i \leq x \leq x_{i+1}$, ya'ni $s(x)$ $x_i \leq x \leq x_{i+1}$ da p -darajali ko'pxad;

2) $s(x) \in C^{p-k}[a, b]$, $1 \leq k \leq p$; ya'ni $s(x)$ $[a, b]$ kesmada $p-k$ ta uzluksiz hosilalarga ega va uning uzluksiz hosilalari soni ko'phadnikidan k taga kam.

Ta'rif 2. Agar $s(x_i) = f(x_i), i = 0, 1, \dots, n$, bo'lsa $s(x)$ splayn $f(x)$ ni interpolyatsiyalaydi deyiladi va quyidagicha yoziladi: $s(f, x)$.

Agar $p = 2m - 1, m \geq 1, k = 1, \dots$ bo'lsa splayn toq darajali oddiy splayn deyiladi. Bunday splaynning erkinlik darajasini (koeffitsientlar sonini) aniqlaylik.

Har bir kesma $[x_i, x_{i+1}]$ da $s(f; x)$ $2m - 1$ - darajali ko'phad, ya'ni $A = 2m$ ta koeffitsientga ega. Bu koeffitsientlarga quyidagi bog'lanishlar qo'yilgan:

a) ichki $n-1$ ta (x_1, \dots, x_{n-1}) nuqtalarda $S, S', \dots, S^{(2m-2)}$ hosilalar uzluksiz, ya'ni $(n-1)(2m-1)$ ta shart bor;

b) $(n+1)$ ta interpolyatsiya $S(f; x_i) = f(x_i), i = 0, 1, \dots, n$, shartlar bor, ya'ni $B = n + 1 + (n-1)(2m-1)$ ta shartlar bor. Farq $A - B = 2m - 2$ ga teng. Bu etishmagan shartlar chegara shartlar sifatida beriladi.

1-tur chegara sharti: $f^{(j)}(x_0), f^{(j)}(x_n), 1 \leq j \leq m-1$ lar berilgan, ya'ni (ularning soni $A - B = 2m - 2$ ga teng.)

$$S^{(j)}(f; t) = f^{(j)}(t), t = a \text{ ёки } t = b, j = 1, \dots, m-1.$$

2-tur chegara shart: $f^{(j)}(x_0), f^{(j)}(x_n), m \leq j \leq 2m-2$, lar berilgan, ya'ni (ularning soni $A - B = 2m - 2$ ga teng.)

$$S^{(j)}(f; t) = f^{(j)}(t), t = a \text{ ёки } t = b, j = m, \dots, 2m-2$$

2'-tur chegara shart: $f^{(i)}(a), f^{(j)}(b)$ hosilalar berilmagan. SHuning uchun $S^{(j)}(f; t) = 0, t = a \vee b, j = m..2m-2$, (ularning soni $A - B = 2m - 2$ ga teng) deb qabul qilinadi. 2'- tur chegara shart tabiiy shart deyiladi.

Davriy chegara shart. Agar interpolyatsiya qilinuvchi funktsiya davriy bo'lsa splayn ham davriy bo'lishi kerak. SHuning uchun $S^{(j)}(f; t) = f^{(j)}(t), j = 1, \dots, 2m-2$, deb talab qilinadi.

Misol 1. CHiziqli interpolyatsiya splayni. ($m = 1$). Ravshanki, har bir $[x_i, x_{i+1}]$ oraliqda $S(f; x) = a_i + b_i(x - x_i)$ bo'lib, a_i, b_i koeffitsientlar interpolyatsiya shartlardan topiladi: $S(f; x_i) = f(x_i), S(f; x_{i+1}) = f(x_{i+1})$ shuning uchun $a_i = f(x_i), b_i = f[x_i, x_{i+1}]. h_i = x_{i+1} - x_i$ desak,

$$S(f; x) = f(x_i) + (x - x_i)f[x_i, x_{i+1}], x_i \leq x \leq x_{i+1},$$

bo'ladi. Ravshanki, chiziqli splayn qoldig'i

$$R(f; x) = f(x) - S(f; x) = \frac{f^2(\xi)}{2!} (x - x_i)(x - x_{i+1}), \quad (1)$$

har bir $[x_i, x_{i+1}]$ uchun alohida olinadi.

2.Splaynlarning ekstremal xossalari.

Darajali splaynlar quyidagi ekstremal xossalarga ega:

$$\int_a^b [f^{(m)}(x)]^2 dx = \int_a^b [S_{\Delta}^{(m)}(x)]^2 dx + \int_a^b [f^{(m)}(x) - S_{\Delta}^{(m)}(x)]^2 dx,$$

$$\int_a^b [f^{(m)}(x) - S_{\Delta}^{(m)}(x)]^2 dx = (-1)^m \int_a^b [f(x) - S_{\Delta}(x)] S_{\Delta}^{(2m)}(x) dx$$

Ushbu $L_2(a, b)$ kvadrati bilan integrallanuvchi Lebeg funktsiyalar sinfida skalyar ko'paytmani qaraylik:

$$(f, g) = \int_a^b f(x)g(x)dx, \|f\| = (f, f).$$

U holda 1 ekstremal xossa quyidagicha isbotlanadi:

$$\|f^{(m)} - S^{(m)}\|^2 = \|f^{(m)}\|^2 - 2(f^{(m)} - S^{(m)}, S^{(m)}) - \|S^{(m)}\|^2 = \|f^{(m)}\|^2 - \|S^{(m)}\|^2 \geq 0,$$

chunki interpoltsiya va chegara shartlarda o'rinli:

$$\int_a^b [f^{(m)}(x) - S_{\Delta}^{(m)}(x)]^2 dx = \int_a^b [f^{(m)}(x)]^2 dx - \int_a^b [S_{\Delta}^{(m)}(x)]^2 dx -$$

$$- 2 \sum_{\alpha=1}^{m-1} (-1)^{\alpha+1} [f^{(m-\alpha)}(x) - S_{\Delta}^{(m-\alpha)}(x)] S_{\Delta}^{(m+\alpha-1)}(x) \Big|_a^b -$$

$$- 2 \sum_{i=1}^n (-1)^{n+1} [f(x) - S_{\Delta}(x)] S_{\Delta}^{(2m-1)}(x) \Big|_{x_{i-1}}^{x_i} = \int_a^b [f^{(m)}(x)]^2 dx - \int_a^b [S_{\Delta}^{(m)}(x)]^2 dx$$

2 ekstremal xossa ham shu kabi isbotlanadi.

Misol 2. $f(0)=1, f(0.5)=0, f(1)=4$ funksiya qiymatlari jadvali berilgan. CHiziqli interpolatsiya splaynining qiymati topilsin $S_1(f; 0.25)=?$.

$$S(f, x) = a_i + b_i(x - x_i)$$

$$a_i = f(x_i) = f(x_0) = 1$$

$$b_i = f(x_i, x_{i+1}) = \frac{f(x_{i+1}) - f(x_i)}{x_{i+1} - x_i} = \frac{f(0.5) - f(0)}{0.5 - 0} = \frac{0 - 1}{0.5 - 0} = -2$$

$$S(f, x) = 1 - 2(x - x_0) = 1 - 2x$$

$$S(f, 0.25) = 1 - 2 * 0.25 = 0.5$$

Asosiy adabiyotlar

1. Isroilov. M.I. Hisoblash metodlari. Toshkent, O`qituvchi, 1- qism, 2003, 2-qism, 2008.
2. Alov R.D., Xudoyberganov M.U. Hisoblash usullari kursidan laboratoriya mashg'ulotlari to`plami. UzMU.o`quv qo`llanma. 2008 y.1106.
3. G.P.Ismatullaev, M.S.Kosbergenova. Hisoblash usullari. "Tafakkur-bustoni". Toshkent 2014.
4. Imomov A. Toshboyev S.M. Hisoblash usullari. O`quv qo`llanma 132 b. Namangan 2022 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Burden R.L. Numerical Analysis. Books Sole. Boston, USA.-2010.-895 pr.
2. Stoer J., Bulirssh R. Introduction to Numerical Analysis. Springer, New York. 1976.-672 p.
3. Metuz D.G., Kurtis D. Численные методы. Mat lab. M.: "Vilyams".- 2001.-720 s.
4. Ssott L.R. Numerical Analysis. Prinston SU University Press, 2011.-342 p.